

**Qilichev Zoyir Toxir o'g'li**

*GulDU "Ekologiya va geografiya" kafedrası o'qituvchisi*

**Shukurova Sarvinoz Orif qizi**

*GulDU "Ekologiya va geografiya" kafedrası 21-23 guruh talabasi*

## **SIRDARYO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINING HUDUDIY**

### **TARKIBI VA BUGUNGI RIVOJLANISH HOLATI**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Sirdaryo viloyati hududida qishloq xo'jaligining hududiy tarkibi va takomillashtirish tog'risida takliflar berilgan. Viloyatning yillar miqyosida solishtirish ishlari Sirdaryo viloyati mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 3,6 foizini, Mirzacho'l iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 40,8 foizini beradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish orqali rivojlangan bu tarmoqda dehqonchilik etakchilik qiladi. Hozirgi paytda Sirdaryo viloyatining umumiy ekin maydonlari **260** ming gektar bo'lib, shundan **104,4** ming gektariga donli ekinlar ekiladi. Qolgan qismida paxta, poliz va sabzavot yetishtiriladi. Sirdaryo viloyati qishloq xo'jaligi sohasini chuqur tadqiq qilish, islohotlar markaziga aylantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishga qaratilgan ushbu tanlangan mavzu o'z mohiyatiga ko'ra dolzarbligi bilan ajralib turadi.*

***Kalit so'zlar:** agrosanoat klasteri, Fyuchers, revolver kredit, dehqon xo'jaliklari, inkubatsion tuxum.*

**Киличев Зойир**

*Преподаватель кафедры экологии и географии ГулГУ*

**Шукурова Сарвиноз**

*Студент 21-23 группы кафедры экологии и географии ГулГУ*

## **ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ СТРУКТУРА И СОВРЕМЕННОЕ**

### **СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

#### **СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**

***Аннотация:** В статье даны предложения по территориальной структуре и совершенствованию сельского хозяйства Сырдарьинской области. Сравнительные исследования региона за эти годы показывают, что Сырдарьинская область производит 3,6% сельскохозяйственной продукции нашей страны, а Мирзачульский экономический район производит 40,8% сельскохозяйственной продукции. Ведущей отраслью является сельское хозяйство, которое развивалось за счет освоения новых земель. В настоящее время общая площадь пахотных земель в Сырдарьинской области составляет 260 тыс. га, из них 104,4 тыс. га засеяны зерновыми культурами. Остальная площадь используется под выращивание хлопка, бахчевых культур и овощей. Выбранная тема, направленная на*

проведение углубленного исследования аграрного сектора Сырдарьинской области и превращение ее в центр реформ, отличается актуальностью по своей сути.

**Ключевые слова:** агропромышленный кластер, фьючерсы, револьверный кредит, дехканские хозяйства, инкубационные яйца.

**Kilichev Zoyir**

*Lectur of the Department Ecology and Geography of Gulistan State University*

**Shukurova Sarvinoz**

*Student of the 21-23 group of the Department of Ecology and Geography*

*Gulistan State University*

## **TERRITORIAL STRUCTURE OF AGRICULTURE IN SYRDARYA REGION AND CURRENT STATE OF DEVELOPMENT**

**Annotation:** *This article presents proposals on the territorial structure of agriculture in Syrdarya region and its improvement. Comparative studies of the region over the years show that Syrdarya region provides 3.6% of our country's agricultural products, and Mirzachul economic region provides 40.8% of agricultural products. Dekhkan is the leader in this sector, which has developed through the development of new lands. Currently, the total arable land of Syrdarya region is 260 thousand hectares, of which 104.4 thousand hectares are planted with grain crops. The rest is grown with cotton, melons and vegetables. This selected topic, aimed at conducting in-depth research on the agricultural sector of Syrdarya region and turning it into a center of reforms, is distinguished by its relevance in its essence.*

**Keywords:** *agro-industrial cluster, Futures, revolver loan, peasant farms, incubation eggs.*

**Kirish.** 2024 yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar hajmi 3 319,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan va 2023 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 11,4 foizga oshgan. 2024 yil yanvar-iyun oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 30,3 foizni tashkil etgan.

2024 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasi tarkibida eng katta ulush moliyaviy xizmatlar (32,2%), savdo (24%) va transport (12,4%) xizmatlariga to‘g‘ri kelgan. Keyingi o‘rinlarni boshqa xizmatlar (6,7%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1%), ta‘lim xizmatlari (3,8%), yashash va ovqatlanish (3,0%), ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (2,5%), sog‘liqni saqlash (2,5%), kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlash (2,3%), shaxsiy xizmatlar (2,1%), ijara xizmatlari

(1,6%) me'morchilik, muhandislik tadqiqotlari texnik sinov va tahlillar bo'yicha xizmatlar (0,9%) egallagan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023 yilning shu davriga nisbatan 2024 yil yanvar-iyun oylarida barcha xizmat turlarining dinamikasida o'sish sur'atlari kuzatildi. Transport xizmatlari 18,6%, ijara xizmatlari 16,6%, me'morchilik, muhandislik tadqiqotlari texnik sinov va tahlillar bo'yicha xizmatlar 15,3%, yashash va ovqatlanish xizmatlari 15,1%, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 15%, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash 12,7%, ta'lim xizmatlari 12,3%, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 11,5%, moliyaviy xizmatlar 10,5%, savdo xizmatlari 9,2%, boshqa xizmatlar 8,5%, sog'liqni saqlash 4,8%, shaxsiy xizmatlar (sartarosh va go'zallik saloni xizmatlari) 4,7%ga oshgan.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 43,2% Guliston shahri hissasiga to'g'ri kelgan. Hududda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi eng katta ulushlar bo'yicha keyingi o'rinlar Sirdaryo (14,0%), Boyovut (8,5%) tumanlari va Yangiyer shahri (7,3%) hissasiga, eng kichik ulushlar esa Shirin (1,4%), Oqoltin (3,7%) va Sardoba (3,9%) tumanlariga to'g'ri kelgan.

2024 yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer sh. (117,4%), Shirin sh. (115,5%), va Mirzaobod (109,9%) tumanida kuzatilgan. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **4775,7 ming** so'mni tashkil etgan. Aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari eng yuqori ko'rsatkichlari Oqoltin (**8612,5 ming** so'm), Sayxunobod (**7033,5 ming** so'm) va Sardoba (**6825,8 ming** so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining **54 %** chorvachilik, **46 %** dehqonchilik faoliyati hissasiga to'g'ri kelgan. Ushbu davrda qiymati **2 289** mlrd. so'mlik **33,9** ming tonna tirik vaznda go'sht, **1 016** mlrd. so'mlik **313,5** ming tonna don mahsulotlari, **619** mlr. so'mlik **173** ming tonna sut, **327** mlrd. so'mlik **77** ming tonna sabzavotlar yetishtirilgan.

O'simlikchilik mahsulotlarining **27,2%**, chorvachilik mahsulotlarining

92,5% dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan. Jami qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2 329 ta ga yetib, jami faoliyat yuritayotgan korxonalarining 45,2% ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligiga-xorijiy investitsiyalarni jalb qilish davr talabi bo‘lib bormoqda. Qishloq xo‘jaligi yerlarida **tarkibida tsellyuloza mavjud bo‘lgan ekinlar va almashlab ekishda qatnashadigan boshqa turdagi ekinlarni etishtirish va qayta ishlash bilan shug‘ullanadigan agrosanoat klasteri tashkil etilmoqda.**



1-rasm. Sirdaryo viloyati xizmatlar sohasi (ushbu infografika Sirdaryo viloyati statistika agengligi rasmiy saytidan foydalanish uchun olindi)

Bundan to‘rt besh yil oldin qishloq xo‘jaligi mahsulotlari **asosan** Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston davlatlariga eksport qilingan bo‘lsa, ayni kunda dunyoning yigirmadan oshiq davlatlariga **xususan**, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Polsha va Eron boshqa mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Bu Sirdaryo zaminida etishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga jahon bozorida talab ortib borayotganidan dalolat.

Sirdaryo viloyati O‘simliklar karantini hududiy inspeksiyasi tomonidan

viloyatda etishtirilayotgan to‘qsonbosti ekinlar, issiqxona xo‘jaliklaridagi pomidor, bodring baqlajon boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining fitosanitar holati doimiy ravishda nazorat qilib borilmoqda.

Bugungi kunda boshqa viloyatlar qatori Sirdaryo **viloyatida ham, paxta va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy agroklastyer shakllantirilgan. Bu Vazirlar Mahkamasining 14.06.2019 yildagi 500-son qarorida belgilangan.** Klaster to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish, paxta xom ashyosi etishtirishning samarali usullarini joriy qilish, urug‘lik materialini etishtirish, qayta ishlash va tayyorlash, chuqur qayta ishlash asosida boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishni tashkil qilish uchun barpo etilgan.

#### **Quyidagilar agroklasterning asosiy vazifalari hisoblanadi:**

-paxta xom ashyosi va boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlari etishtirishning ilg‘or ilmiy yutuqlari, zamonaviy va samarali usullarini joriy qilish;

-paxta xom ashyosiga birlamchi ishlov berishning samarali va yuqori rentabelli usullarini, shuningdek, chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy qilish;

-paxta chigiti hamda boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarining urug‘larini davlat va xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishlab chiqarish, tayyorlash va sotish;

-paxta xom ashyosi va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirish jarayoniga ilg‘or agrotexnik hamda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish;

-to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni, shuningdek, xalqaro moliya institutlarining kreditlarini jalb qilish hisobiga qishloq xo‘jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;

-yetishtiriladigan paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotining sifati hamda miqdorini hisobga olish va nazorat qilish jarayonlariga zamonaviy AKT ni keng joriy etish;

-ilmiy va ta‘lim muassasalari bilan birgalikda selektsiya hamda urug‘chilik sohasida tadqiqotlar o‘tkazish, qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlari va

duragaylarini, shuningdek, paxta xom ashyosini birlamchi qayta ishlash texnologiyalarini yaratish.

2019-2021 yillarda paxta tozalash korxonolari bazasida investorlar, shu jumladan xorijiy investorlar jalb etilgan holda paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilgan. Bunda paxta tozalash korxonolari va paxta tayyorlash punktlarining bino hamda inshootlari paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari tashkilotchilariga 5 yil muddatda bo'lib to'lash (teng miqdordagi yillik to'lovlar) sharti bilan baholash qiymatida sotilgan. Agroklasterga yigiruv va to'qimachilik ishlab chiqarishlarini tashkil etish va ishga tushirish davrida 30 ming tonnagacha miqdordagi paxta tolasini to'g'ridan-to'g'ri yoki **fyuchers** shartnomalari bo'yicha eksportga sotishga ruxsat byerildi.

**Fyuchers** (lot. Futurus-kelajak)-tovar yoki fond birjalarida xom ashyo tovarlari, oltin, valyuta, qimmatli qog'ozlarni hozirgi amalda bo'lgan narxlarda, lekin yetkazib byerish va haqini keyingi kelishilgan muddatlarga qoldirish bilan oldi-sotdi qilish bo'yicha bitishuvlar. Bitishuv ijrosiga qadar xaridor kamroq kafolat summasini (zakalat) byeradi. Aksariyat hollarda fyuchyers bitimlari tovarni uzil-kesil xarid qilish yoki sotish maqsadlarida emas, balki kelgusi bitishuvlarga naqd tovarni g'amlash yoki tovarni keyinchalik qayta sotish hisobidan foyda olish maqsadlarida tuziladi. Hali ishlab chiqarilmagan tovarning namunalari bo'yicha oldi-sotdi bitishuvlarini ham fyuchers deb atash mumkin. Fyuchers to muddati kelguniga qadar birjalarda maklerlar tomonidan ko'p marta qayta sotiladi va sotib olinadi.

Fyuchers shartnomasi - bu ommaviy sotiladigan birjada aktivni sotib olish yoki sotish to'g'risidagi bitim. Shartnomada sotuvchi aktivni qachon etkazib berishi va narxi qanday bo'lishini belgilaydi. Fyuchers shartnomasining asosiy aktivi odatda tovar, aktsiya, obligatsiya yoki valyutadir.

Agroklaster va uning tarkibiga kiradigan tashkilotlar respublikada ishlab chiqarilmaydigan va o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yhatlar bo'yicha olib kelinadigan uskunalalar, maxsus transport

vositalari va texnika, butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallar, qurilish materiallari, issiqxona komplekslari, hayvonlar, urug'liklar va o'simliklar, veterinariya preparatlari, shuningdek, mineral o'g'itlarni olib kirishda 2022 yil 1 iyulgacha bo'lgan muddatga bojxona to'lovlaridan (bojxona yig'implaridan tashqari) ozod etilgan.

**Dehqon xo'jaliklari manfaatdorligini oshirish ham davr talabi bo'lib bormoqda. Prezidentning 10.09.2022 yildagi "Dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-373-son qarori qabul qilindi.** Prezidentning 2021 yil 23 noyabrdagi PQ-20-son qaroriga muvofiq, fermer xo'jaliklari va klasterlar foydalanishidagi past hosilli paxta va g'alladan qisqartirilgan va aholiga uzoq bo'lmagan hududlardan **(Respublika bo'yicha):**

-2022 yilda – 80 ming gektar ekin maydonlari;

-2023-2025 yillarda-120 ming gektar ekin maydonlari aholiga ochiq elektron tanlov orqali ijaraga beriladi.

Jumladan, Prezidentning 15.06.2022 yildagi "Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-281-son qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida ham viloyatda o'ziga xos jarayonlar kechmoqda.

2022 yil 1 iyundan boshlab parrandachilik xo'jaliklari va parranda omuxta emi ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik sub'ektlariga don zaxirasi yaratish uchun Markaziy bank asosiy stavkasida 3 oylik imtiyozli davr bilan 12 oy muddatgacha **revolver kreditlar** ajratilmoqda.

Eng avvalo, qayd etish joiz, revolyer, deganda bizning ko'z o'ngimizga keladigan to'pponchaga buning hech bir aloqasi yo'q. Iqtisodiy lug'atlarda izohlanishicha, **revolver kredit**-milliy va jahon moliya bozorlarida eng keng tarqalgan hamda tiklanib turadigan kredit turi hisoblanadi. U bu borada bank bilan bitim tuzganlarga qo'shimcha muzokaralarsiz, kelishilgan qarz limiti doirasida va to'lov muddatlarida avtomatik tarzda beriladi. Ya'ni, mijoz tuzilgan shartnoma

asosida bank limiti doirasidagi kredit miqdoridan foydalanadi va u qaytarilishi bilan shu summadagi yangi qarzni oladi. Xarajat-qaytarish-tiklanish tarzidagi pul aylanmasi kelishilgan muayyan muddat davomida istalgancha takrorlanishi mumkin.

Qiymati 5 mlrd soʻmdan oshmagan kreditlar boʻyicha Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan kredit foiz stavkasining bir qismini qoplash uchun 3 yilgacha kompensatsiya hamda kichik tadbirkorlik subʻektlariga ajratiladigan kreditlarning 50%i gacha, biroq umumiy qiymati 2,5 mlrd soʻmdan oshmagan miqdorda kafillik beriladi. Mazkur tartib quyidagi maqsadlarda **qoʻllaniladi**:

-parrandachilik xoʻjaliklari va parranda omuxta emi ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subʻektlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan kelib chiqib, inkubatsion tuxum, bir kunlik joʻja, ozuqa mahsulotlari va uning qoʻshimchalari, dori vositalari, qoʻshimcha komponentlar, bugʻdoy, makkajoʻxori, soya doni, soya va kungaboqar shrotini zaxira qilishga aylanma mablagʻlarni toʻldirish;

-goʻsht etishtirish yoʻnalishidagi yangi loyihalarni amalga oshirish, barcha turdagi inkubatsion tsexlar, parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash texnologik asbob-uskunalarini, shuningdek, maxsus texnikalar va ularning ehtiyot qismlari hamda boshqa asosiy vositalarni sotib olish va modernizatsiya qilish.

-Parrandachilikni rivojlantirish boʻyicha maqsadli davlat dasturlari boʻyicha kredit mablagʻlari 10 yilgacha muddatga 3 yilgacha imtiyozli davr bilan ajratiladi. Bunda, asosiy **galani** shakllantirish, shu jumladan inkubatsion tuxum, joʻjalar (final gibrid), ona tovuqlar va ota-ona galasini xarid qilish bilan bogʻliq tadbirlar uchun kreditlar investitsiya loyihasini moliyalashtirish sifatida uzoq muddatga ajratilishi nazarda tutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – Oʻzbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) - Oʻzbekiston Respublikasi qishloq va suv xoʻjaligi



vazirligining rasmiy sayti.

3. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, m‘yoriy hujjatlari sayti.

4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

5. [www.agriculture.uz](http://www.agriculture.uz) – O‘zbekiston agroaxborot tizimi portali

6. Qilichev, Z. T. (2023). SIRDARYO VILOYATI TABIIY SHAROITI VA UNING AHOLI SALOMATLIGIGA TA‘SIRI. Экономика и социум, (12 (115)-2), 310-315.

7. O‘G‘Li, Q. Z. T. (2024). SIRDARYO VILOYATI SHAHARLARINI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(6), 4-9.

8. Axunboboyev, M. M., Xidiraliyev, K. E., & Ibadullayev, A. E. (2024). ELIORATIV CHORA-TADBIRLARNING QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA AHAMIYATI. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2(1-2), 134-142.